

OLIV TA'LIM MUASSASALARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Mustafaqulov Asatulla Asrorovich

Jizzax politexnika instituti

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kushbakov Qaxramon Safar o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti

"Maktab menejmenti" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: *ushbu maqola yildan-yilga sifatli ta'lim olishni xohlovchilar sonining keskin oshib borayotganligi, ta'lim oluvchilarning o'qish ehtiyojlari kengayib borishi, yangi mutaxassisliklarning paydo bo'lishidan kelib chiqqan holda oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini boshqarish hamda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni takomillashtirishning ayrim masalalariga bag'ishlangan.*

Tayanch so'zlar: *Ta'lim sifati, ta'lim sifatini boshqarish, zamonaviy tendensiyalar;*

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ УПРАВЛЕНИЯ ВУЗАМИ

Мустафакулов Асатулла Асrorovich

Жиззакский политехнический институт

Доктор философии педагогических наук (PhD)

Кушбаков Кахрамон Сафарович

Джиззакский государственный педагогический университет

Преподаватель кафедры «Управление школой»

Аннотация: *Освещаются вопросы повышения уровня менеджмента в высших учебных заведениях и повышения уровня подготовки конкурентоспособных кадров по мере увеличения образования различных сфер и увеличения потребности в учебе за счет появления новых специалистов.*

Ключевые слова: *качество образования, качество управления образованием, современные тенденции;*

MODERN TENDENCIES OF MANAGEMENT OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Mustafaqulov Asatulla Asrorovich

Jizzakh polytechnic institute

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

E-mail: asatullamustafaqulov@gmail.com

Kushbakov Qaxramon Safarovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti

“Maktab menejmenti” kafedrasi o‘qituvchisi

Abstract: *There are enlightened some issues of increasing of management in the sphere of higher educational institutions and improving of preparation of compete able personal as educates of different spheres are increasing and widening of study demand by appearing of new specialists.*

Keywords: *Quality of education, management quality of education, modern tendencies;*

Mamlakatimizda iqtisodiyotni innovasion yondashuvlar asosida rivojlantirish bilan bog‘liq holda xorijiy texnologiyalarni o‘rganish, tajribalar almashish hamda xorijiy mutaxassislar bilan hamkorliklarni yo‘lga qo‘yish, mutaxassis kadrlar tayyorlashda fan, ta‘lim va ishlab chiqarish integratsiyasining zamonaviy modelini yaratish va ta‘lim sifatini takomilashtirishning me‘yoriy-asoslari yaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” to‘g‘risidagi PQ-5847-son farmonida “Ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish” ustuvor vazifa etib belgilangan [1].

Ta‘limning muhim ahamiyatini anglash - sifatli ta‘lim taqdim etish va o‘zlashtirish sifati fenomeniga alohida qiziqish uyg‘otdi. Ushbu tushunchaning paydo bo‘lishi so‘nggi yillar bilan bog‘liq, deb aniq aytish qiyin. Ammo, unga nazariyachilarning e‘tibori zamonaviy turmush sharoitida hayot sifati va ta‘lim sifati o‘rtasidagi bog‘liqlik, ijtimoiy-

iqtisodiy modernizatsiya va shaxsning o‘z-o‘zini anglash jarayonining sifatli ta’lim bilan yaqqol bog‘liqligi nomoyon bo‘lmoqda.

Ilgari ta’lim sifati muammosi vaqti-vaqti bilan tashkil etiladigan yomon o‘zlashtirishga qarshi kurash kampaniyalari orqali hal qilingan holatda, ta’lim tizimining yutuqlari yoki kamchiliklarining ko‘rsatkichi sifatida a‘lochi va qoloq ta’lim oluvchilarning sonini hisoblashga qaratilgan miqdoriy yondashuv ustunlik qilar edi.

So‘nggi yillarda pedagogikada gumanistik pozitsiyalarning mustahkamlanishi bilan ta’lim sifati o‘rtasidagi bog‘liqlikka alohida e’tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari, mazkur holat umumevropa jarayonlarining hosilasidir deb qarasaq xato qilmagan bo‘lamiz. Boloniya shartnomasida ishtirok etayotgan mamlakatlar ta’limni modernizatsiyalashning ustuvor yo‘nalishi sifatida uning sifati va baholanishini ta’minlaydigan tartiblar bajarilishi kerakligiga e’tibor qaratganlar.

G‘arb mamlakatlarida ta’lim sifati muammosi o‘tgan asrning ikkinchi yarmida muhokama predmetiga aylandi. Bunga ikkita misolni keltiramiz. 1960 yil 14 dekabrda YuNESKO Konferensiyasi davlat ta’lim muassasalarida sifatli ta’lim olishni kafolatlaydigan ta’lim standartlari, ya’ni natijalar va mazmunga yondashuvlarning yagonaligi va shartlarning ekvivalentligini ta’minlash Konvensiyasi qabul qilindi: “(b) To ensure that the standards of education are equivalent in all public education institutions of the same level, and that the conditions relating to the quality of education provided are also equivalent” - Ta’lim standartlari bir xil darajadagi barcha davlat ta’lim muassasalarida ekvivalent bo‘lishini va taqdim etilayotgan ta’lim sifatiga tegishli shart-sharoitlar teng bo‘lishini ta’minlaydi” [9]. Undan tashqari 1960 yilda, Amerika Qo‘shma Shtatlarida ta’lim sifatini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazildi: “The Quality Measurement Project, A Research Activity Conducted By The New York State Education Department” - Sifatni o‘lchash loyihasi, Nyu-York shtatining Ta’lim departamenti tomonidan olib borilgan tadqiqot faoliyati. Ushbu tadqiqotning maqsadi maktab ta’lim tizimi tomonidan taqdim etilgan ta’lim sifatini mustaqil baholash uchun texnologiyalarni ishlab chiqish edi – “the purposes of the quality measurement project were to develop techniques for assessing the quality of education provided by a school system...”. Shunga

qaramay, ta'lim sifatiga alohida e'tibor qaratish o'tgan asrning to'qsoninchi yillaridan boshlandi.

O'tgan asrning to'qsoninchi yillarining oxiriga kelib Fransiyada bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyada oliy ta'lim uchun "ta'lim sifati" tushunchasi kiritildi. Mazkur konferensiyada oliy ta'limdagi asosiy parametrlar nuqtai nazaridan sifat darajasini doimiy tarzda kuzatib, nazoratga olib borish va uni ko'tarish kelgusidagi asosiy vazifalardan, deb hisoblandi [4]. Mazkur holat oliy ta'lim sifatini oshirib borish har bir millatning xavfsizligini ta'minlovchi strategik soha deb belgilab olindi.

Ta'lim xarakteristikalarini talqin qilinishida sifat va ta'lim tushunchalari ahamiyatini mos qo'yish sifatni amalga oshirishning ikkita mumkin bo'lgan yondashuvini taqdim etish imkoniyatini beradi. Shaxs rivojlanishiga e'tibor qaratiladigan bo'lsak, u holda ta'lim sifati uning eng yuqori qismi bo'lib, u shaxsning xususiyatlarini aniqlaydi. Bundan kelib chiqadiki, shaxs ta'lim sifati tavsifiy-ifodaviy xususiyatga egadir, chunki u ob'ektning o'lchamining biron bir tartibiga mos kelmaydi. Har bir inson uchun alohida standart qaralib, inson hayoti davomida erishgan yutuqlari unga nisbatan solishtiriladi.

Ta'lim tizimidagi ta'limiy dasturlarga, ta'lim xizmatlarini ko'rsatishdagi shart-sharoitlar, natijalar va ularning amaliyotga tadbiqiga, umumiy holda tan olingan standartlarga, ijtimoiy va shaxsiy talablarga mos kelishi - amaliy sharoitlarda sifatli ta'limni namoyon etadi. Birinchi ta'rifning o'ta murakkabligi tufayli pedagogika fanlari uning asosida yotgan g'oyasiga nisbatan mo'ljalni oladi, chunki pedagogik amaliyot predmet ma'nosida ta'limiy-tarbiyaviy sifatlarni shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirishga yo'naltiriladi.

Ta'lim sifatining turli darajadagi xarakteristik jihatlarini qayd etilgan yondashuvga asosan ajratib ko'rsatish mumkin. Bu esa ko'p hollarda alohida komponentlarni qayd etish metodi orqali aniqlanadi. Kutubxonalarni talablarga to'liq javob berishi, ularni kompyuterlar bilan ta'minlanganligi ta'lim parametrlari natijalari sifatida – ilmiy-pedagog kadrlarning klassifikatsiyasiga ta'sir ko'rsatadi.

O'lchov va matematik hisob-kitob qilish mumkin bo'lgan mezonlarni tanlash ehtiyojining mavjudligi ayni haqiqatdir. Biroq, qayd etilgan fundamental falsafiy talqinni mavhumlashtirsak ham ta'lim sohasida "standartlashtirilmagan" elementlar alohida ahamiyatga ega ekanligini unutmashimiz kerak. Ta'lim standartlari so'zning qat'iy ma'nosida DTS (Davlat Ta'lim Standarti) emasligi bejiz emas, chunki har qanday DTSning o'ziga xos xususiyati bu raqamlarni aniqlash va o'lchash mumkin bo'lgan ko'rsatkichlardir. Yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolarni hisobga olgan holda, ta'lim sifatini aniq raqam bilan ifodalash mumkin emas.

Davlat ta'lim standartlari malaka talablari ta'lim natijalariga olib keladi, uning natijasi sifatida umumkasbiy va kasbiy kompetensiyalar tushuniladi. Kompetentli deyilganda - nafaqat bilim, ko'nikma, malakani tushunamiz, balki insonning amaliy tajribasi qadriyatlarini ham tushunamiz. Shaxs tavsifiy mohiyatini tashkil etuvchi kompetentlikning asosi – sifat tavsiflari bilan chegaralanib qolmaydi.

"Miqdoriy" amaliyotlari bilan sifat xususiyatlarini belgilab olish qiyin masaladir. Qadimgi faylasuflar ob'ektlarning fazoviy-geometrik xususiyatlarini miqdoriy xususiyatlar bilan tenglashtirganlar. O'lchanadigan parametrlarni absolyut aniqlanishi boshi berk ko'chaga olib kelganligi sababli, tez orada mazkur g'oya cheklanganligi aniqlandi. Xuddi shu narsa zamonaviy pedagogika fanida ham sodir bo'ldi, ya'ni "miqdoriy" yondashuvning noto'g'ri ekanligi, ta'limning sifat xususiyatlari ustida yetarli darajada tadqiqot ishlarini olib borilishiga sabab bo'ldi.

YuNESKO tomonidan tayyorlangan akkreditatsiyalangan atamalar Glossariysida ko'rib chiqilayotgan tushunchaning quyidagi: minimal ta'lim standartlarining kafolatlangan amalga oshirilishi; turli kontekstlarda maqsadlarni belgilash va ularga kirish ko'rsatkichlari hamda kontekstli o'zgaruvchilar yordamida erishish; asosiy va bilvosita iste'molchilar va manfaatdor tomonlarning talablari va kutilganlarini qondirishga tayyorlik; takomillashtirishga intilish xususiyatlari ta'kidlangan [2].

Ta'lim sifati davlat ta'lim standartlari malaka talablariga mos kelish - birinchi va ikkinchi holatda ham shu nuqtai nazardan tushuniladi. Hosil qilingan yondashuvda turli

manfaatdor tomonlarni talab ka kutilmalarini aks ettiruvchi standart bu normadir. Ta'lim shartlariga mos tarzda jarayoniy yondashuvlar talablarni aniqlaydi.

Davlat va jamiyatdagi ta'lim jarayonlarining samaradorligi va uni aks ettiruvchi holatlar, ijtimoiy tushunchalar nuqtai nazaridan ta'lim sifatini aniqlaydi. Turli ijtimoiy guruhlarining shaxs, fuqarolik va kasbiy kompetensiyalari, maqsad va vazifalarini shakllanishi hamda rivojlanishida ularni quyidagi tarzda: ta'lim mazmuni, shakl va metodlari, moddiy-texnik bazasi, kadrlar bilan ta'minlanganligi kabi ifodalash [8].

Turli ta'limiy xizmatlar kutilmalariga mos tarzda ta'lim sifati tushunchasining mazmun-mohiyati me'yorlarga adekvatligini belgilaydi. Bunda ta'lim sifati individual qobiliyatlarni shakllanganligi orqali baholanadi, boshqacha aytadigan bo'lsak, sifatning - natija maqsadiga mos kelishi. Ta'lim sifati ikkita yondashuvda baholanadi: ta'limiy xizmatlarni amalga oshirilishiga ko'ra hamda tayyor mahsulotning tavsifini aniqlash taklif etiladi.

Yuqoridagi ta'rifdan ta'lim sifati tushunchasining mazmun-mohiyati ko'rsatiladigan turli ta'lim xizmatlaridan foydalanuvchilarga, xususan, davlat, jamiyat va unda hayotiy faoliyatini amalga oshirayotgan insonlarning orzu-umidlariga, sifat normasiga, modelga mos tarzda belgilanadi. Shu bilan birga, ta'lim shaxs sifatining qobiliyatli shakllanganligi orqali, ya'ni maqsadning natijaga mos kelishi orqali baxolanadi. Ta'lim sifati mazkur baxolashning ikki yondashuvi asosida: ta'lim xizmatlarini amalga oshirish yuzasidan sifatli shakllanishi; tayyorlangan mahsulotlarning sifat xususiyatlari orqali aniqlanadi.

Natija va maqsadning o'zaro uyg'unligida sifat aniqlanadigan bo'lsa, u holda uni modellashtirish mumkin bo'ladi. Mazkur holat ta'lim sifatining turlicha bo'lishligidan darak beradi, bu esa oldinga qo'yilgan maqsadlarga bog'liqdir. Hosil qilingan natija ularga aniq mos kelsa, u holda talab etilayotgan sifat darajasi haqida fikr yuritish mumkin. Bu esa, turli maqsadlarga turli ta'lim sifatining darajalari mos kelishini bildiradi.

Ta'lim sifatini o'quv jarayoni natijalari nuqtai nazaridan o'rgana turib, ushbu natijalar nimani anglatishini aniqlab olishimiz kerak bo'ladi. Bu savolga javob ko'p variantlidir. O'quv jarayonining natijalari sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

bilimlarning shakllanganlik darajasi, ko'nikma darajasi, shaxsning intellektual rivojlanish darajasi, axloqiy fazilatlarini, turli faoliyatlarda namoyon bo'ladigan ijodiy munosabat. Bu variantda ta'lim sifati quyidagiga teng: a) o'quvchining to'liq va teran bilimiga; b) bilimlarning umumlashgan va davriylashgan darajasiga; v) ta'lim muammolarini murakkablik darajasi yuqori bo'lgan holda hal qila olish qobiliyatiga. Kompetentlik yondashuvining ommaviyligi ta'lim sifatini bilimlar, qobiliyatlar to'plami bilan emas, balki insondagi asosiy va kasbiy kompetensiyalari bilan shakllantirish kerakligini belgilab berdi.

Taklif etilayotgan ta'lim sifati bilan olinayotgan ta'lim sifati o'rtasida farq ayni vaqtda mavjud emas. Mazkur kontekstda ta'lim sifati tushunchasining mazmunini aniqlashda ob'ektiv va sub'ektiv yondashuvlar haqida o'ylab ko'rish mumkin. Dastlabkisi shaxsdan tashqari ta'lim xususiyatlarini uning talablarini hisobga olgan holda rasmiy baholash bilan bog'liq. Ta'lim sifatining va ta'lim standartiga mosligiga e'tibor beriladi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, sifat boshqaruv tizimini loyihalashtirilishi bir qancha qulay bo'lgan optimal modellarni o'zida namoyon etadi, jumladan:

1. Sifat boshqaruvining Yevropa fondi modeli [6].
2. Sifat boshqaruvi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi modeli [7].
3. Tvente universiteti (Niderlandiya), Oliy ta'lim siyosatini tadqiq qilish markazi (CHEPS) modeli [10];
5. Niderlandiya universitetlari assotsiatsiyasi modeli (VSNU) [5];
6. Belgiya-Niderlandiya modeli (HBO ExpertGroup) [3];
7. Ta'lim sohasida "Baldrige National Quality Award" milliy Amerika mukofotining modeli.
8. Buyuk Britaniya modeli va boshqalar.

Mazkur modellarning barchasi jarayonga yo'naltirilgan yondashuvga asoslanib, korxonalar faoliyatining to'liqligi, teranligi va sifat boshqaruvi tizimi - ta'lim

muassasasining umumiy boshqaruv tizimi bilan o‘zaro bog‘liqligi darajasi bilan farqlanadi. Taxlillar boshqaruv tizimlarining amaldagi modellari o‘rtasidagi muvofiqlikni o‘rnatishga imkon berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrda qabul qilingan “O‘zbekistan Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.

2. Аветисов А.А. О системологическом подходе в теории оценки и управления качеством образования // Квалиметрия человека и образования: методология и практика. Пятый симпозиум. - М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 1996.-С. 54.

3. Бельгийско-нидерландская модель (НВО Expert Group). <http://quality.edu.ru/quality/sk/deskr/modeli/374/>.

4. Высшее образование в XXI веке Подходы и практические меры: Всемирная конференция по высшему образованию /ЮНЕСКО. Заключительный доклад. - Париж, 1998. - 23 с.

5. Модель Ассоциации университетов Нидерландов (VSNU) <http://www.quality.edu.ru/quality/sk/deskr/modeli/376/>.

6. Модель Европейского фонда по менеджменту качества (EFQM) <http://quality.edu.ru/quality/sk/deskr/modeli/362//>.

7. Ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan o‘tkazish mezonlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi Qarori. O‘zbekiston respublikasi adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olingan 27.01.2020 y. N 3214. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2020 yil 27 yanvar. "O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami", 2020 yil 3 fevral, 4-son, 36-modda.

8. Шихов Ю.А. Мониторинг качества подготовки специалистов // Высшее образование сегодня. - 2006. - № 2. - С. 54-55.

9. Gueissaz A., Hayrinen-Alestado M. How to Integrate Contradictory Aims. The Configurations of Actors in the Evaluation of Universities // European journal of Education. Abingdon, Oxfordshire. - 1999. - Vol. 34. № 3. - P. 283-297.

10. Center for Higher Education Policy Research (CHEPS).